



UYNI JIHOZLASH USULLARI

Ibrohimov Diyorbek Sirojiddin o‘g‘li,

Andijon davlat pedagogika instituti

texnologik ta ’lim yo `nalishi talabasi

Nilufar Zuhriddinova Nusrat qizi,

Andijon davlat pedagogika instituti

fizika va texnologiya kafedrasи o ‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Har bir oila o‘zining ehtiyoji, imkoniyati va tushunchasiga qarab xonalarni o‘ziga xos qilib jihozlaydi. Xonalarni jihozlashda xonalarning soni, hajmi, o‘zaro mutanosibligi, eshik va derazalarning o‘lchami, shakllari, xonalarga kunduzgi yorug‘likning qanchalik tushishi va shu kabilar katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada uy jihozlash usullari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so`zlar: *uy, jihoz, mebel, garnitur, dahliz, mehmonxona, pardoz, lok bo`yoq.*

АННОТАЦИЯ: Каждая семья обставляет свои комнаты по-своему, исходя из своих потребностей, возможностей и понимания. При меблировке помещений важную роль играют количество, размер и пропорции комнат, размер и форма дверей и окон, количество дневного света, проникающего в комнаты, и т. д. В этой статье рассматриваются методы обустройства дома.

Ключевые слова: *дом, оборудование, мебель, гарнитур, прихожая, гостиница, отделка, лак.*

ANNOTATION: Each family furnishes rooms in its own way, depending on its needs, possibilities and understanding. The number, size, mutual proportions of rooms, the size and shape of doors and windows, the amount of daylight entering the rooms, etc. play a major role in furnishing rooms. This article discusses methods of furnishing a house.

Keywords: *house, equipment, furniture, set, hallway, hotel, decoration, varnish.*



KIRISH. Mebellarni joylashtirish, xonalarning ichini bezash uy egalarining didi, uquvi va ma'lum darajada fe'liga bog'liq. Xonalar qulay, shinam bo'lishi uchun nimalar qilish, qanday jihozlar olish va ularni qanday joylashtirish, ularning hajmi, shakli, bezagi, rangi qanday bo'lishi kerakligini odatda oldindan o'ylab ko'riladi.

Xonalar mebellar va turli buyumlar bilan qalashtirib tashlanmagani ma'qul. Har bir jihozning o'z o'rni borligi, ular boshqa buyumlar va xonaning o'zi bilan mutanosib bo'lishi lozim.

Xonalardagi mebel, jihozlar bir garnituradan bo'lishi, bir to'plamni tashkil etishi yoki zamonaviy bo'lishi shart emas. Lekin hamma jihozlar shakli, hajmi, bezagi, rangi bilan bir-biriga uyg'un, mos bo'lmog'i kerak. Xonani jihozlashda har bir narsa mebel, badiiy mato, chiroq, gilam, amaliy san'at namunalari, turli to'shamalar ma'lum bir maqsadga xizmat qilishi, xona ichiga fayz kiritishi lozim Sandiq, xontaxta kabi milliy mebellar mahalliy sharoitga muvofiqligidan o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa qariyalar xonasini sandiq, xontaxta kabilarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Odatda, sandiq xonaning bir burchagiga qo'yiladi, ustiga ko'rpa-yostiq yig'iladi.

Ko'pincha, to'g'ri to'rtburchak, ba'zan kvadrat, doira, oval shaklida ishlangan xontaxta xonaning o'rtasiga yoki bir chetiga qo'yiladi, atrofiga ko'rpacha tashlanadi. Xontaxta va uning ustiga tashlanadigan dasturxon rangi bilan parda va devorning rangi bir-biriga muvofiq bo'lishiga ahamiyat berilsa xona chiroyligi ko'rinadi. Mebelning barcha jihozlari yog'ochning bir turidan tayyorlana-di yoki bir xil pardoz beriladi. Xona ichida ranglarning yaxlitligiga erishish uchun yumshoq mebellar bir xil mato bilan qopla-nishi, deraza pardalarining rangi ham xona ichidagi jihozlar rangiga mutanosib bo'lishi kerak.

Dahliz. Dahlizning asosiy jihizi kiyimligich. Tor daxlizlar uchun qozig'i yoki ilmog'i bo'lgan kiyimligichlar qulay. Yuqori qismi bosh kiyimlarga mo'ljallangan polga qo'yiladigan kiyimligichlar ham bor. Bolalar uchun kiyimligichlar tayyorlash mumkin, sumka, soyabon va boshqa narsalar uchun ham ilgaklar qo'yiladi. Buning



uchun devorga tik (vertikal) qoqilgan taxtalarga oralig'i 25—30 sm qilib, gorizontal yo'nalishda ensiz taxtalar qoqiladi.

Shu taxtalarga ilgaklar qo'yiladi. Kiyim ilgichni moy bo'yoq, emal, rangsiz lok bilan bo'yash mumkin. Agar joy bemalol bo'lsa, kiyim g'ijimlanmasligi uchun kiyimosgichlardan foydalanish kerak. Kiyimilgichning ilgagi yer sathidan 190-200 sm balandlikda bo'lishi kerak. Uning quyi qismida oyoq kiyimlari uchun tokcha bo'ladi.

Ko'zgu dahlizning zarur jihizi hisoblanadi. Ko'zgu foydalanish qulay bo'lgan joyga o'rnatilgani yaxshi. Uning yoniga taxta tokcha yoki pardoz-andoz buyumlari uchun stolcha qo'yilishi lozim. Hajmi uncha katta bo'lмаган ko'zgular esa — to'g'ri to'rtburchak, yumaloq, oval shakllardagi bezakli yog'och yoki metall romlarga o'rnatilgan bo'lsa chiroyli ko'rindi. Daxdizda qurilma shkaflardan ham foydalanish mumkin.

Mehmonxona. Umumiyl xona, odatda, eng keng xona bo'lib, undan umumiyl oilaviy dam olish, mehmon kutish uchun foydalaniladi. Bu xonaning vazifasi ko'p bo'lganligi uchun uni jihozlashga alohida e'tibor berilishi kerak. Deraza oldi, odatda dam olishga ajratiladi. Shu maqsadda bu yerga divan, pastakkina jurnal stoli, bir yoki ikki kreslo, televizor, radiomagnitofon qo'yiladi.

Xonaning katta-kichikligiga qarab yana servant, bezak ashyolar, kitob javoni qo'yish mumkin. Mehmon kutiladigan xonada albatta stol, stullar bo'ladi. Xona keng bo'lib turishi uchun stol devorga yaqin qo'yilsa, zarur paytda o'rtaga olinadi Mehmonxona tor bo'lsa, stol yig'ma bo'lgani ma'qul. Xona o'z nomi bilan mehmonxona bo'lgani uchun ham aksariyat shu xona bekalarining didi, ichki madaniyatini namoyon etadi. Shuning uchun ham uni jihozlash va bezashga hamma bekalar ham alohida ahamiyat berishadi.

Yotoqxona. Xonalar hajmi va oila a'zolarining soni, tarkibiga qarab yotoqxona, ish kabineti, bolalar xonasi kabilarga ajratiladi. Yotoqxona uchun odatda kichikroq xona tanlanadi. Unga faqat uqlash uchun zarur bo'lgan mebellar qo'yiladi. Bolalar xonasi uchun kengroq xona ajratilgani, unda karavotdan chetroqda bolalar o'ynaydigan joy ham bo'lgani ma'qul.



Yosh bolalar 3—4 yoshgacha ota-onasining yotoqxonasida bo‘ladi. Bu yerda asosiy yotish joyidan tashqari, albatta, bolalar karavoti uchun ham joy ajratiladi. Xonalar kam bo‘lsa, yotoqxonalar ijodxona (kabinet) vazifa-sini ham o‘taydi. Demak u yerga shunga mos jihozlar ham kiritiladi. Odatda ish stoli derazaga taqab qo‘yiladi. Stolga yaqinroq devorga kitob javoni o‘rnatilsa, kam joy egallaydi. Kiyim-kechak saqlanadigan shkaf, odatda, yotoqxonada bo‘ladi. Yotoqxonaga pardoz stolchasini qo‘yish mumkin.

Yotoqxona odatdagи (shiftdagи) lampochkadan tashqari, karavotlar yonidagi tumbochkalar tepasida devorga o‘rnatiladigan lampalar bilan ham yoritiladi. Ish joyidagi stol ustiga, pardoz stolchasiga stol lampasi qo‘yilgani ma’qul. Deraza pardalari, gilam, karavot ustidagi yopqichlar bir-biriga mos bo‘lsa, chiroyli ko‘rinadi.

Bolalar xonasi. Imkon bor yerda bolalar uchun alohida yorug‘, oftob tushadigan xona ajratiladi. Uni bolalar yoshiga qarab jihozlanadi. Bolalarning serharakatligi inobatga olinib, ularning o‘yiniga kengroq joy ajratiladi. Bu xonada ortiqcha narsalar bo‘lmagani ma’qul. Kunduzi yig‘ishtirib qo‘yiladigan karavotlar qo‘yilsa, xona yana ham keng bo‘lib, bolalar bemalol o‘ynashiga sharoit yaratiladi Farzandlarning yoshi, jinsiga qarab aksariyat otalar bolalar xonasiga mos ikki qavatli karavot yoki rom oldiga yig‘ma stol yasab yoki burchakni bolalarning dare tayyorlashiga moye qilib uchburchak stol yasab beradilar. Xonani jihozlashda bolalarning o‘zlari ishtirok etsalar yana ham chiroyli bo‘ladi. O‘smlarning xonasi o‘zlariga mos qilib jihozlanadi. Ularning dars tayyorlashi uchun yozuv stolidan foydalansa bo‘ladi. Kichik yoshdagи maktab o‘quvchilari uchun parta shaklidagi kichik stolchalar yaxshi bo‘ladi.

Oshxona. Oshxona ishlaridan eng ko‘p vaqt oladigani ovqat tayyorlashdir. Ovqat tayyorlash uchun oshxonada maxsus jihozlar bo‘lishi lozim; ularning turlari va o‘lchami uy (kvartira) tuzilishi va oila a’zolarining soniga bog‘liq bo‘lib foydalanish uchun qulay qilib joylashtirilishi zarur. Bunday jihozlar mahsulotlar va idishlarni yuvish qurilmasi, mahsulotlar ajratib tayyorlanadigan va oshxona idishlari saqlanadigan stol-shkaf, quruq mahsulotlar saqlanadigan osma shkaflar, javonlar,



shuningdek gaz plita va muzlatgichdan iborat. Yuvish qurilmasi tagidagi shkafga chiqindilar uchun qopqoqli chelak qo'yish tавсиya etiladi. Agar oshxona kattaroq bo'lsa, u yerga qo'shimcha jihozlar: issiq ovqatlarni suzish va yaxna taomlarni solish uchun zarur bo'lgan idishlar qo'yiladigan stolshkaf, ovqatlanish stoli, stullar va boshqalarni joylashtirish mumkin. Gaz plitasining yuqorisiga oshxonaning havosini tozalaydigan havo tozalagich (elektrofiltr) o'rnatish kerak. Yuvish qurilmasi plita bilan yonma-yon joylashmagani maql. Aks holda unga suv sachrashi mumkin. Polga qo'yiladigan oshxona jihozlari poldan bir xil balandlikda (eng qulay balandlik 85 sm) bo'lishi kerak. Devorga qoqib o'rnatiladigan shkaflar ish stoli yuzasidan 55 sm balandga joylashtirilishi lozim Pardalar. Xonalarni hajmi, o'rnidan qat'i nazar, ularni jihozlashda pardalar katta ahamiyatga ega. Odatda pardalar deraza va eshiklarga tutiladi. Ular turli mato, elastik sun'iy plyonka, to'rlardan, shuningdek somon va ingichka novda, yupqa taxtachalar-dan tayyorlanishi mumkin. Pardalarning rangi, guli xonalar hajmi, devorlar rangi, xona ichidagi jihozlarga mos bo'lishi kerak. Derazaga odatda ikki parda (to'r va qalin mato) tutiladi. Keyingi paytlarda deraza tomon devori bo'ylab yaxlit bir xil parda tutish ham urf bo'ldi. Uylarning pastki qavatlarida yoki boshqa uylarga yaqin qurilgan joylarda to'r va qalin mato parda-lardan tashqari (uy ichi tashqaridan ko'rinmasligi uchun) deraza-ning quyi qismiga kalta pardalar (darparda) ham tutiladi.

Uy jihozlash bo'yicha tавсиya. Uyimizni yangi ta'mirdan chiqarish jarayonida biz ko'pgina xatoliklarga yo'l qo'yishimiz oqibatida uning shinamligiga putur etkazib qo'yishimiz mumkin.

Hozirda sizlarga uyimizni jihozlash bo'yicha bir nechta foydali maslahatlarni berib o'tmoqchimiz!

Uyingizdagи yorug'lik ajoyib bir muhit yaratibgina qolmay, u sizning kayfiyattingizga ham ta'sir qilish hususiyatiga ega, shuning uchun uyingizda markazga joylashtirilgan yagona qandil to'g'ri kelmaydi. Maslahatimiz, yoritgich joylashishi mumkin bo'lgan joylarga qarab uning sonini oshiring. Kichik gilamchalar uyingizdagи muvozanatni buzib qo'yishini hisobga olgan



holda, unga to‘g‘ri o‘lcham tanlash juda muhim hisoblanadi. Katta gilamlar esa tasavvurni kengaytirib, xonani ko‘rkam qilish uchun xizmat qiladi. Televizorni joylashtirish uchun eng qulay joy bu - bo‘sh devor hisoblanadi. Televizoringizni oynaga qarama-qarshi tomonga yoki unga yaqin o‘rnatmang, bu ko‘rish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, tasvirni anglash ko‘rsatkichini pasaytirib yuboradi. Televizor hamda divan orasidagi masofa esa televizor ekranining o‘lchamiga bog‘liq.

Divaningiz uchun mo‘lallangan yostiqlar uyingizdagи muhitni a’lo darajada bo‘lishiga xizmat qiladi. Yostiqlarni tanlashda uyingiz yoki divaningiz rangiga e’tibor qaratingiz zarur.

Bu usul katta xonalar uchun qo‘llaniladi. Agarda xonangiz o‘lchami katta bo‘lsa, divanlarni devor yoniga emas, uni ko‘zga ko‘rinadigan joyga joylashtirganingiz ma’qul. Har holda uyingiz raqs tushuvchi sinfga emas, mehmonxonaga ko‘proq o‘xshaydi.

Agar qora rangli mebellaringiz bo‘lsa uyingizdagи yorug‘lik o‘rnini qorong‘ulik egallashi turgan gap. Uncha katta bo‘lmagan mehmonxonagiz uchun kichikroq va yorqinroq divan va stollar tanlang! Shuni e’tiborga olishingiz hohlar edikki, mebelning chiroyli bo‘lishi emas, u sizning xonangiz uchun qanchalik mos tushishi muhim. Asosiysi, mebelni siz uchun qulayligini hisobga oling.

Mebellarning ham o‘z uslubi mavjud. Juda katta suyanchiqqa ega mebellar o‘z ahamiyatini yo‘qotib qo‘ygan. E’tiboringizni an’anaviy divanlarga qaratgan holda, iloji boricha takrorlanmas ranglarni tanlang. Eng ajoyib joy - poldan rasm markaziga 153 sm oraliqdagi joy hisoblanadi. Agarda sizda rasmlar juda ham ko‘p bo‘lsa, ularni uyning har bir burchagiga emas, alohida belgilangan joyga ilishingiz tavsiya etiladi.

XULOSA. Tez-tez yo‘l qo‘yiladigan xatolik uydagi o‘lchami to‘g‘ri kelmaydigan mebellardir. Buning oqibatida uydan zavq olish uchun hech qanday joy qolmaydi. O‘z xonangizga iloji boricha ikki o‘rindiqli divan hamda kreslolardan joylashtiring.



Agar sizning uyingiz kvadrat shaklda bo‘lsa uni kitob javoni hamda shkaf yordamida to‘ldirib, muvozanatni salqab qolishingiz mumkin. Xonadagi pardalarning ham joylashuvi uning ko‘rkiga juda katta ta’sir o‘tkazadi.

Kalta pardalar xona ko‘rinishini qisib qo‘yishi mumkin. U qancha uzun va balandroqda ilingan bo‘lsa, uyingiz chiroyini shuncha ochib yuboradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdujabbarova M.T. Turar-joy binolarini loyihalash: O‘quv qo‘llanma. – T.: TAQI, 2018.
2. Qodirova S.A. Jamoat binolarini loyihalash: O‘quv qo‘llanma. – T.: TAQI, 2015.
3. Inogomov B.I. Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash: O‘quv qo‘llanma. - T.: TAQI, 2010.
4. Ubaydullayev X.M., Xidoyatov T.A, Abduraxmanov Y.I, Korobovsev G.I., Mansurov Y.M. Arxitekturaviy loyihalash: O‘quv qo‘llanma. - T.: TAQI, 2012.